

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z VA SHAKL YASALISHINING MORFONOLOGIK ASPEKTLARI

*Mamatkulova Nasiba Maxamadjonovna,*

*Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi*

*mamatkulova84@internet.ru*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi va shakl hosil qilish jarayonlarida yuzaga keladigan morfonologik alternatsiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda asos va qo'shimcha birikishida kuzatiladigan fonetik transformatsiyalar, substantivatsiya va lingvistik interferensiya hodisalari ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, morfonologik o'zgarishlarning tilning semantik va sintaktik tizimini boyitishdagi o'rni yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* morfonologiya, so'z yasalishi, alternatsiya, derivatsiya, morfema, lingvistik interferensiya, substantivatsiya, assimilyatsiya.

## МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАНИЯ СЛОВ И ФОРМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

*Маматкулова Насиба Махамаджоновна,*

*Гулистанский государственный университет, соискатель*

*Аннотация.* В данной статье анализируются морфонологические чередования, возникающие в процессах словообразования и формообразования в узбекском языкознании. В исследовании научно обосновываются фонетические трансформации, наблюдаемые при соединении основы и аффикса, а также явления субстантивации и лингвистической интерференции. Также освещается роль морфонологических изменений в обогащении семантической и синтаксической систем языка.

*Ключевые слова.* Морфология, словообразование, альтернация, деривация, морфема, лингвистическая интерференция, субстантивация, ассимиляция.

## MORPHONOLOGICAL ASPECTS OF WORD AND FORMATION IN UZBEK LINGUISTICS

*Nasiba Maxamadjonovna Mamatkulova,*  
*Gulistan State University, researcher*

**Annotation.** *This article analyzes the morphological alternations that occur in the processes of word formation and form creation in Uzbek linguistics. The research scientifically substantiates phonetic transformations observed at the junction of the root and the affix, as well as the phenomena of substantivization and linguistic interference. The role of morphological changes in enriching the semantic and syntactic systems of the language is also highlighted.*

**Keywords:** *morphology, word formation, alternation, derivation, morpheme, linguistic interference, substantivization, assimilation.*

Tilning leksik qatlamini boyitish va grammatik imkoniyatlarini kengaytirishda soʻz yasalishi (derivatsiya) fundamental jarayon hisoblanadi. Til doimiy rivojlanishda boʻlgani sababli, uning morfologik strukturasi va leksik tizimi evolyutsion oʻzgarishlarga uchraydi. Tilshunoslikning muhim sohalaridan biri boʻlgan soʻz yasalishi, nafaqat yangi soʻzlar yaratish, balki tilning ichki qonuniyatlarini aniqlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Soʻz yasalishining asosiy mexanizmi morfologik jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Bunda eng kichik maʼno birligi boʻlgan morfemalar oʻrtasidagi aloqa markaziy oʻrinni egallaydi. Ayniqsa, morfemalarning birikishi natijasida yuzaga keladigan morfonologik alternatsiya (tovush almashinuvi) tildagi garmoniya va maʼno aniqligini taʼminlovchi murakkab hodisadir.

Alternatsiya soʻzi lotincha *alternatio* (almashinuv) soʻzidan olingan ushbu termin, tilshunoslikda morfema tarkibidagi tovushlarning maʼlum bir pozitsiyada bir-biri bilan oʻrin almashishini anglatadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, morfemalar funksional jihatdan ikki turga boʻlinadi:

Birinchi darajali morfemalar (asoslar): Soʻzning lugʻaviy magʻzini ifodalovchi qism.

Ikkinchi darajali morfemalar (affikslar): Asosga qoʻshilib, unga yangi maʼno yoki shakl yuklovchi elementlar (suffiks, prefiks, infiks).

Soʻz yasalihi jarayonida yangi morfemalar qoʻshilishi orqali yangi leksik birliklar shakllanadi. Masalan, oʻzbek tilida -chi yoki -lik qoʻshimchalari yordamida yasalgan suvoqchi va yaxshilik soʻzlari bunga yaqqol misoldir.

Tilshunoslik taraqqiyotining keyingi bosqichlarida morfonologik almashinish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu nazariya turlicha talqin qilinishi natijasida tilshunoslikning mustaqil boʻlimi – morfonologiya shakllandi. Bu boʻlim morfologiya va fonologiya oʻrtasidagi aloqadorlikni, aniqrogʻi, morfologik oʻzgarishlarning fonetik asoslarini oʻrganadi.

Akkumulatsiya jarayoni biror tilda faol qoʻllaniladigan soʻz yoki iboralarning boshqa tilga oʻtishi va u erda oʻz joyini topishini anglatadi. Bu tilshunoslikda lingvistik interferensiya yoki soʻz almashish jarayoni deb ham yuritiladi. Ushbu fenomen tillar oʻrtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalar natijasida yuzaga keladi. Masalan, rus tilidagi kompyuter soʻzining oʻzbek tiliga oʻzlashishi yoki oʻzbekcha iboralarning turk tiliga kirib borishi tillararo integratsiyani kuchaytiradi. Ushbu integratsiya jarayonida morfonologik alternatsiyalar oʻziga xos koʻrinishda namoyon boʻladi.

Substantivatsiya, yaʼni soʻzlarning otlashuv jarayoni ham soʻz yasalihiining bir koʻrinishi sifatida eʼtirof etiladi. Bu jarayonda soʻzning sintaktik vazifasi oʻzgarishi bilan birga semantik alternatsiya ham yuz beradi.

"Yaxshidan bogʻ qoladi" maqolida "yaxshi" sifatining otlashishi chiqish kelishigidagi otning tushib qolishi natijasidir. Bu erda biz tejash tamoyili (shakllarning qisqarishi) asosida yuz bergan mazmun alternatsiyasini koʻramiz. Sifat oʻzining belgi bildirish xususiyatini saqlagan holda, shaxs tushunchasini ham oʻziga yuklaydi.

Morfonologik alternatsiyalarning aksariyati kombinator-pozitsion jihatdan shartlangan bo'ladi. Ya'ni, yondosh tovushlar yoki urg'u ta'sirida morfema chegarasida o'zgarishlar yuz beradi.

Regressiv assimilyatsiya va tovushlar almashinuvi. A. Abduazizov ta'kidlaganidek, o'zak va affiks chegarasidagi fonetik moslashuv tildagi tabiiy jarayondir. Misol: Sez- + -kanmoq > seskanmoq. Bu erda -kan affiksidagi jarangsiz "k" tovushi o'zak oxiridagi "z" ni o'ziga moslab, uni "s" ga aylantiradi (z – s morfonemasi).

Unlilar alternatsiyasi (a – o almashinuvi)

Quyidagi misollarda lab undoshi bo'lgan "v" ning ta'sirini ko'rish mumkin:

So'ra- + -v > so'rov

Qara- + -v > qarov

Bu erda affiksial morfemadagi "v" lab undoshi o'zak oxiridagi lablanmagan "a" unlisini lablangan "o" unlisiga aylantiradi. Bu nafaqat talaffuz qulayligi, balki so'zning yangi leksik shaklini barqarorlashtirish uchun xizmat qiladi.

So'z yasashda semantika, ya'ni ma'no markaziy rol o'ynaydi. Yangi so'z yaratishda asosning ma'nosi saqlangan holda, qo'shimchalar yordamida yangi semantik qatlamlar qo'shiladi. Masalan, -lik qo'shimchasi bilan yasalgan yaxshilik so'zi mavhum ot yasash orqali sifatdag belgi tushunchasini predmetlashtiradi.

Bunda sintaktik o'lcham ham muhim: yangi yaratilgan so'z gap qurilishida o'zining yangi funksional o'rniga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, sasiq, issiq kabi yasalmalarda kuzatiladigan nol ( $\emptyset$ ) – s alternatsiyasi ma'lum bir semantik yukni tashishga xoslanganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, morfonologik alternatsiyalar o'zbek tilining boy derivatsion imkoniyatlarini ko'rsatuvchi ko'zgudir. So'z yasashining ilmiy asoslarini chuqur o'rganish, tilshunoslarga nafaqat yangi so'zlarni yaratishda, balki tilni rivojlantirishda ham yordam beradi. Alternatsiyalar tilning sofliqini, milliyiligini va zamon talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Morfonologik almashinishlar shunchaki fonetik hodisa emas, balki til tizimining morfologik, leksik va semantik darajalarini birlashtiruvchi universal vositadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hojiyev A. O'zbek tili morfonologiyasi. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Ne'matov H. O'zbek tili morfonologiyasi asoslari. – Toshkent, 1994.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.